| “Futurologiya va mintaqaviy iqtisodiy transformatsiya: Markaziy Osiyoda O'zbekistonning strategik senariylari” .....                                    | 421 |
| <b>Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich</b>                                                                                                                |     |
| Kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari.....                                | 425 |
| <b>Irgasheva Nigora Akbarovna</b>                                                                                                                       |     |
| Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан .....                            | 434 |
| <b>Додиев Феруз, Голышева Елена Вячеславовна</b>                                                                                                        |     |
| Turistik erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish: Imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar .....                              | 443 |
| <b>Xoliqov Dostonbek Rustam o'g'li</b>                                                                                                                  |     |
| Oliy ta'limda davlat-xususiy sheriklik: moliyalashtirish modelini modernizatsiya qilish yo'nalishlari.....                                              | 449 |
| <b>Bozorov Alisher O'zimurotovich</b>                                                                                                                   |     |
| Xalqaro raqamli intergatsiya, raqamlashtirish sharoitida tijorat banklari faoliyati tahlili .....                                                       | 455 |
| <b>Turapov Bahromjon Alisher o'g'li</b>                                                                                                                 |     |
| To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – iqtisodiyot taraqqiyotining muhim omili.....                                                               | 461 |
| <b>Mamatkulova Nodira Maxkamovna</b>                                                                                                                    |     |
| Davlat xaridlari ishtirokchilarining elektron-skoring tizimi.....                                                                                       | 465 |
| <b>Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li</b>                                                                                                            |     |
| Qishloq xo'jalik korxonalarida melioratsiya xarajatlari xisobining muammolari va yechimlari.....                                                        | 469 |
| <b>Baxriev Muxiddin Sheralievich</b>                                                                                                                    |     |
| O'zbek banklarining xarajatlar samaradorligini stoxastik chegara modelida baholash .....                                                                | 481 |
| <b>Xannayev Sherzod</b>                                                                                                                                 |     |
| Практические подходы к выявлению и оценке налоговых рисков на основе сегментации деятельности налогоплательщиков .....                                  | 490 |
| <b>Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна</b>                                                                                             |     |
| Iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiyalardan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari va investitsiyalarni jalb qilish istiqbollari.....    | 496 |
| <b>No'monjonova Muazzam Maxbubjon qizi</b>                                                                                                              |     |
| Empowering the future: The impact of automation, iot, and demand management on energy efficiency in smart grids.....                                    | 501 |
| <b>Khakimjanova Surayyo Khabibullayevna</b>                                                                                                             |     |
| Institutsional o'zgarishlar sharoitida aholi daromadlari tarkibining oshishi va daromadlar tengsizligini kamaytirishning istiqbolli yo'nalishlari ..... | 508 |
| <b>Ergasheva Nafisa Baxridinovna</b>                                                                                                                    |     |
| Международные индексы, определяющие цифровое развитие страны .....                                                                                      | 513 |
| <b>Талъатова Диёра Боходир кизи</b>                                                                                                                     |     |



|                                                                                                                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik instituti orqali investitsiya loiyhalarini moliyalashtirishda moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash metodologiyasi ..... | 517 |
| <b>Karabayev Sanjar Abdusamatovich</b>                                                                                                                                              |     |
| Управление качеством в технологических стартапах: Баланс между скоростью и надежностью .....                                                                                        | 527 |
| <b>Хамидуллина Гульнора Рафкатовна, Раджабов Темур Рустамович, Носиров Илхом Аббосович</b>                                                                                          |     |
| Namangan viloyatida iqtisodiy integratsiyani jarayonida eksport va import operatsiyalarining tahlili .....                                                                          | 535 |
| <b>Adashev Azimjon O'rinboyevich</b>                                                                                                                                                |     |
| Korxonalarda kadrlar tayyorlash ijrosidagi mavjud muammolar va kadrlar siyosatining takomillashtirib borish xususiyatlari .....                                                     | 541 |
| <b>Mamatqulov Rustam Muxammadkarimovich</b>                                                                                                                                         |     |
| Yashirin iqtisodiyot tushunchasi, turlari va shakllanish omillari hamda uning iqtisodiyotga ta'siri.....                                                                            | 546 |
| <b>Malikov Abdulaziz Toxirjon o'g'li, S.A. Zakirova</b>                                                                                                                             |     |
| The purpose of assessing a person's entrepreneurial capacity is to classify their quality characteristics .....                                                                     | 562 |
| <b>Mansur Matkarimov, Qaxramon Madraximov, Sherjon Sherjonov, Jahongirbek Nurjonov</b>                                                                                              |     |
| Challenges in enhancing the efficient use of economic resources in agriculture within an innovative economy framework.....                                                          | 568 |
| <b>Nodira Abdullayevna Eshquvattova</b>                                                                                                                                             |     |
| Оценка эффективности существующих методов стратегического управления проектами .....                                                                                                | 573 |
| <b>Мансурова Севара Мансуровна</b>                                                                                                                                                  |     |
| Создаются благоприятные условия для индивидуальных предпринимателей и самозанятых лиц .....                                                                                         | 577 |
| <b>Батыров Фархад Бакитович</b>                                                                                                                                                     |     |
| Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish yo'llari.....                                                                       | 593 |
| <b>Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich</b>                                                                                                                                               |     |
| Toshkent viloyatida metal bozorining rivojlanishi va unda kichik biznesning o'rni .....                                                                                             | 600 |
| <b>Musayeva Shoirazimovna</b>                                                                                                                                                       |     |
| Mechanisms for ensuring employment in the services sector through the development of small business and private entrepreneurship.....                                               | 606 |
| <b>Turabekov Sokhibjon Sherboy ugli, Abdukhaliqov Ulugbek Abdukhaliqovich</b>                                                                                                       |     |
| Tijorat banklarini raqamlatirish sharoitida inson resurslarini boshqarishning innovatsion yondashuvlari (BRB misolida) .....                                                        | 611 |
| <b>Azimov Asrorjon Muzaffarjonovich</b>                                                                                                                                             |     |
| The importance and current state of accounting and auditing of liabilities in enterprises .....                                                                                     | 616 |
| <b>Khaliqnazarova Gulnaz Jalgasbay qizi</b>                                                                                                                                         |     |
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xotin-qizlarning barqaror bandlik darajasining ekonometrik tahlili.....                                                                     | 622 |
| <b>Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi</b>                                                                                                                                            |     |
| Moliyaviy bozor ishtirokchilari faoliyatini samarali boshqarishda innovatsion moliyaviy vosita va metodlarning qo'llanilishi.....                                                   | 627 |
| <b>Hotamqulova Madina Sanjar qizi</b>                                                                                                                                               |     |
| Oliy ta'limga investitsiya kiritishning asosiy shakl va mexanizmlari .....                                                                                                          | 631 |
| <b>Almardanov Ulug'bek Qudrat o'g'li</b>                                                                                                                                            |     |
| "Yashil" iqtisodiyotning metodologik asoslari.....                                                                                                                                  | 635 |
| <b>Babakulov Bahromqul Mamatkulovich, Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, Boymurodov Jonon Komiljonovich</b>                                                                          |     |
| O'zbekiston sharoitida davlat xaridlarini yanada rivojlantirish istiqbollari .....                                                                                                  | 641 |
| <b>Turganbaev Nursulton Bayram uli</b>                                                                                                                                              |     |



# O'ZBEKISTON SHAROITIDA DAVLAT XARIDLARINI YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI



**Turganbaev Nursultan Bayram uli**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi  
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti  
ORCID: 0009-0008-8848-3874

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida davlat xaridlarini rivojlantirish masalalari, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish, raqobatni kengaytirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat xaridlari, shaffoflik, elektron tender, raqobat, korrupsiya, samaradorlik.

**Abstract:** This article examines the issues of developing public procurement in Uzbekistan, current challenges, and future prospects. Scientific conclusions are provided on increasing transparency, expanding competition, reducing corruption risks, and introducing modern innovative technologies in public procurement.

**Key words:** public procurement, transparency, e-tender, competition, corruption, efficiency.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы развития государственных закупок в Узбекистане, существующие проблемы и перспективные направления. Приведены научные выводы по повышению прозрачности, расширению конкуренции, снижению коррупционных рисков и внедрению современных инновационных технологий в систему закупок.

**Ключевые слова:** государственные закупки, прозрачность, электронный тендер, конкуренция, коррупция, эффективность.

## KIRISH

Davlat xaridlari mamlakat iqtisodiyotida byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat davlat sektorining barqaror faoliyatini ta'minlaydi, balki milliy iqtisodiy o'sishga, raqobat muhitini rivojlantirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tajribadan ma'lumki, davlat xaridlari ko'plab mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 10–20 foizini tashkil etadi va bu ko'rsatkich uning iqtisodiyotdagi o'rni qanchalik muhim ekanidan dalolat beradi [3].

O'zbekistonda so'nggi yillarda davlat xaridlari sohasida sezilarli islohotlar amalga oshirildi. 2018-yilda qabul qilingan “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonun<sup>1</sup> davlat xaridlarini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat sifatida maydonga chiqdi. Ushbu qonun orqali ochiqlik, shaffoflik va raqobat tamoyillariga asoslangan yangi mexanizmlar joriy qilindi. Shuningdek, elektron tender va onlayn auktsion tizimlari ishga tushirildi, bu esa davlat xaridlarida byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda tadbirkorlar uchun qulaylik yaratishga xizmat qildi [2].

Bugungi kunda davlat xaridlari bo'yicha barcha ma'lumotlar maxsus elektron platformalar orqali e'lon qilinmoqda. Bu jarayon ochiqlikni oshirib, korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Masalan, 2024-yilda davlat xaridlarining 80 foizdan ortig'i elektron tender orqali amalga oshirilgani qayd etilgan [1]. Biroq, xalqaro standartlar bilan solishtirilganda, hali ham qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, ayrim sohalarda

1 O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (2018). “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonun (O'RB-472-son, 09.04.2018). Lex.uz



raqobat yetarli darajada ta'minlanmagan, kichik biznesning davlat xaridlaridagi ulushi 25 foizdan oshmagan, hujjatlarni tayyorlash jarayonida esa ortiqcha byurokratik talablar mavjudligi tadbirkorlar tomonidan ko'tarib chiqilmoqda [4].

Shuningdek, tender jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash masalasida muammolar mavjud. Ayrim hollarda natijalar oldindan kelishib qo'yilishi yoki manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi ehtimoli haqida shikoyatlar kuzatilmoqda. Bunday vaziyatlar davlat xaridlarining samaradorligi va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, mustaqil nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish va xalqaro ilg'or tajribalarni joriy etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda davlat xaridlari nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlash vositasi, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash omili sifatida qaraladi [7];[8]. Shu bois, O'zbekistonda davlat xaridlarini yanada rivojlantirish, raqamlashtirishni kengaytirish, kichik biznes ishtirokini oshirish va "yashil xaridlar" tizimini joriy etish muhim strategik vazifa bo'lib qolmoqda.

## MAVZUGA OYD ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda davlat xaridlari davlat moliyasining samarali boshqaruvi doirasida eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. OECD hisobotida davlat xaridlarida shaffoflik va samaradorlikni oshirish orqali korrupsion xavflarni sezilarli darajada kamaytirish mumkinligi ta'kidlanadi [2]. Shuningdek, Jahon banki rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat xaridlari tizimining ochiqqligi iqtisodiy o'sishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini alohida qayd etadi [3].

Masalan, Amartya Sen davlat xaridlarining samaradorligini oshirish ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri ekanini ta'kidlaydi [6]. Uning fikricha, davlat xaridlari faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash vositasi emas, balki inson kapitali rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi.

Joseph Stiglitz esa davlat xaridlarini samarali tashkil qilish bozor muvaffaqiyatsizliklarini bartaraf etish, adolatli raqobatni ta'minlash va davlatning iqtisodiy barqarorlikdagi o'rnini kuchaytirishda asosiy instrumentlardan biri sifatida baholaydi [7].

Bundan tashqari, Paul Krugman global iqtisodiyotda davlat xaridlarining fiskal siyosatdagi rolini alohida ko'rsatib, infratuzilma va ijtimoiy loyihalarga yo'naltirilgan xaridlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy drayver ekanini qayd etadi [8].

O'zbekiston misolida ham oxirgi yillarda olib borilgan islohotlar xalqaro tajribaga asoslanib amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat xaridlarining elektron platformalarga o'tkazilishi ochiqqlikni oshirdi, tender jarayonlarida raqobat kuchaydi va byudjet mablag'laridan samarali foydalanish imkoniyati kengaydi [1].

Shu bois, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari tizimida xalqaro standartlarni joriy etish, shaffoflikni kuchaytirish, kichik biznes ishtirokini kengaytirish va ekologik barqarorlikni hisobga olish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tahliliy va qiyosiy usullar tashkil etadi. Davlat xaridlari bo'yicha mavjud normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari ilmiy manba sifatida foydalanildi. Shuningdek, davlat xaridlarining samaradorligini baholashda statistik tahlil va ekspert yondashuvlari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat xaridlari hajmi muntazam ravishda ortib bormoqda. Bu esa mamlakat byudjet siyosatining ochiqqlik, samaradorlik va raqamlashtirish yo'nalishlarida muhim qadamlar qo'yilayotganidan dalolat beradi. Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra:

1-jadval. O'zbekistonda davlat xaridlarining YIMdagi ulushi va elektron tenderlarning umumiy xaridlardagi ulushi (2020–2024)

| Yil  | Davlat xaridlarining YIMdagi ulushi (%) | Elektron tender ulushi (%) |
|------|-----------------------------------------|----------------------------|
| 2020 | 9,5                                     | 40                         |
| 2021 | 10,2                                    | 55                         |
| 2022 | 12,0                                    | 70                         |
| 2023 | 12,8                                    | 75                         |
| 2024 | 13,5                                    | 80                         |

Manba: Moliya vazirligi (2024), World Bank (2022), OECD (2021).



Ushbu tendensiya davlat xaridlarining nafaqat moliyaviy hajmi, balki iqtisodiyotdagi nisbiy ulushi ham kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, davlat xaridlarida elektron tizimlarning joriy etilishi sezilarli natija bermoqda. Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra:

2-jadval. Davlat xaridlarida elektron tender ulushi (2020–2024)

| Yil  | Elektron tender ulushi (%) |
|------|----------------------------|
| 2020 | 40                         |
| 2021 | 55                         |
| 2022 | 70                         |
| 2023 | 75                         |
| 2024 | 80                         |

Manba: Moliya vazirligi (2024), World Bank (2022).

Bu ochiqlikni oshirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va raqobatni kuchaytirishda muhim qadam bo'ldi.

Biroq, xalqaro tajriba bilan solishtirilganda O'zbekistonda davlat xaridlari tizimida hali ham quyidagi muammolar mavjud:

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning past ishtiroki. Amaldagi tender jarayonlari ko'proq yirik kompaniyalarga qulay bo'lib qolmoqda. Natijada kichik biznesning davlat xaridlaridagi ulushi 2024-yilda ham 25 % dan oshmadi, bu esa xalqaro me'yorlardan ancha pastdir [2].

Byurokratik to'siqlar. Tender hujjatlarini tayyorlash va topshirish jarayonida ortiqcha hujjatlar talab qilinishi natijasida tadbirkorlarning xarajatlari ortmoqda.

Shaffoflik masalalari. Ayrim hollarda tanlov natijalari oldindan belgilab qo'yilishi, norasmiy kelishuvlar mavjudligi haqidagi shikoyatlar uchrab turibdi [4].

Nazorat mexanizmlarining zaifligi. Davlat xaridlarini mustaqil audit qilish va jamoatchilik nazoratini samarali yo'lga qo'yish tizimi yetarli darajada shakllanmagan.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda davlat xaridlarida blokcheyn texnologiyalari joriy etilgan. Bu texnologiya shartnomalarni avtomatik qayd qilish, ma'lumotlarni o'zgartirib bo'lmazligi hamda barcha bosqichlarda ochiqlikni ta'minlash imkonini beradi [2]. Bundan tashqari, so'nggi yillarda "yashil xaridlar" konsepsiyasi keng rivojlanmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat xaridlarining 25–30 % gacha bo'lgan qismi ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarga yo'naltirilmoqda [5].

O'zbekistonda ham 2024-yildan boshlab davlat xaridlariga ekologik talablarni kiritish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlandi. Biroq bu yo'nalish hali keng ko'lamda joriy etilmagan. Shu bois "yashil xaridlar" tizimini kengaytirish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirishi mumkin.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning (Jahon banki, OECD) tavsiyalariga ko'ra, davlat xaridlarida kichik biznes uchun maxsus kvotalar ajratilishi, raqamli platformalar kengaytirilishi va mustaqil monitoring tizimi joriy etilishi samaradorlikni sezilarli oshiradi [3];[2].

3-jadval. O'zbekistonda davlat xaridlarining sohalar bo'yicha taqsimoti (2024-yil, % hisobida)

| Sohalar                          | Davlat xaridlaridagi ulushi (%) |
|----------------------------------|---------------------------------|
| Infratuzilma va qurilish         | 28                              |
| Sog'liqni saqlash                | 20                              |
| Ta'lim                           | 18                              |
| Mudofaa va xavfsizlik            | 12                              |
| Energetika va kommunal xizmatlar | 10                              |
| Axborot texnologiyalari (IT)     | 7                               |
| Boshqa sohalar                   | 5                               |
| Jami                             | 100                             |

Manba: Moliya vazirligi (2024), OECD (2021), World Bank (2022)

Umuman olganda, so'nggi besh yillik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda davlat xaridlari hajmi o'sib bormoqda, elektron tenderlar ulushi ortmoqda, biroq kichik biznesning past ishtiroki, byurokratik to'siqlar va nazoratning sustligi muhim muammolar bo'lishi mumkin.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda davlat xaridlarining so'nggi yillardagi rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, raqamli boshqaruv tizimlarini kengaytirish va moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish bo'yicha muhim qadamlar tashlanayotganidan dalolat beradi [1]. Byudjet mablag'larining ochiq va shaffof taqsimlanishi davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchni oshiradi, shuningdek, raqobat muhitini kuchaytiradi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish va xalqaro tajribalarni joriy etish orqali davlat xaridlarini yanada samarali qilish mumkin [3];[2].

Davlat xaridlarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarni ustuvor deb hisoblash lozim:

Elektron tizimlarni yanada takomillashtirish va blokcheyn asosida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish.

Elektron tender va onlayn auksionlar tizimi davlat xaridlarida ochiqlikni oshirdi, biroq uni yanada mukammallashtirish zarur. Blokcheyn texnologiyasidan foydalanish orqali shartnomalarni real vaqt rejimida qayd etish, ma'lumotlarning o'zgarmasligini ta'minlash va korrupsiya xavfini kamaytirish mumkin [2]. Masalan, Estoniya va Janubiy Koreya tajribasida blokcheyn asosida xaridlar shaffofligi yuqori natija bergan.

Kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratish.

Bugungi kunda tenderlarda yirik kompaniyalar ustunlik qilmoqda. Kichik biznesning ulushi 25 % dan oshmagan bo'lsa-da, xalqaro standartlarda bu ko'rsatkich 40–50 % atrofida [3]. Shu bois kichik tadbirkorlik uchun soddalashtirilgan hujjatlar, alohida kvotalar va imtiyozli moliyaviy shartlar joriy etilishi kerak. Bu nafaqat kichik biznesni qo'llab-quvvatlaydi, balki ichki bozor raqobatini ham kuchaytiradi.

Davlat xaridlarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Hozirgi kunda nazorat mexanizmlari yetarli emas [4]. Shu bois nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini kengaytirish lozim. Masalan, tender natijalari haqida ochiq hisobotlarni e'lon qilish, maxsus onlayn portal orqali shikoyatlarni tezkor ko'rib chiqish tizimini yo'lga qo'yish muhim. Bu esa davlat xaridlarining shaffofligini oshiradi va ishonchni mustahkamlaydi.

Ekologik barqarorlikni ta'minlovchi "yashil xaridlar" tizimini joriy etish.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat xaridlarining 25–30 % gacha bo'lgan qismi ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarga yo'naltiriladi [5]. O'zbekistonda ham 2024-yildan boshlab ekologik talablar qo'yila boshlandi, biroq bu jarayon hali keng miqyosda amalga oshirilmagan [1]. "Yashil xaridlar"ni kengaytirish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki iqtisodiy samaradorlikni ham ta'minlaydi.

Mutaxassislar malakasini oshirish va xalqaro tajriba almashish.

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish uchun professional kadrlar tayyorlash muhim. Bu borada doimiy treninglar, xalqaro seminar va konferensiyalarda ishtirok etish, shuningdek, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish talab etiladi [2]. Masalan, Jahon banki va OECD dasturlari doirasida boshqa mamlakatlarda sinovdan o'tgan innovatsion yondashuvlarni joriy etish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2023. Davlat byudjeti va davlat xaridlari bo'yicha yillik hisobot, 2023. Tashkent: Moliya vazirligi <https://www.mf.uz>
2. OECD, Public Procurement in the Digital Age: Transparency and Efficiency. Paris: OECD Publishing. Available at: <https://www.oecd.org/gov/public-procurement>
3. World Bank, <https://www.worldbank.org/en/topic/governance/brief/public-procurement>
4. Transparency International, <https://www.transparency.org>
5. European Commission, <https://ec.europa.eu/environment/gpp>
6. Sen A., 1999. Development as Freedom. Oxford: Oxford University Press.
7. Stiglitz J., 2010. Freefall: America, Free Markets, and the Sinking of the World Economy. New York: W. W. Norton & Company.
8. Krugman P., 2018. Arguing with Zombies: Economics, Politics, and the Fight for a Better Future. New York: W. W. Norton & Company.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---